



SAYLOV JARAYONI ISHTIROKCHILARINING HUQUQ VA ERKINLIKALARINI TA'MINLASH BORASIDAGI NORMALAR

Hamroyeva Achaxonim Shoirjon qizi
Farg'ona viloyati yuridik texnikumi
“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi
2-bosqich 37-23-guruh o‘quvchisi

Sa’dullayeva Marjona Muzaffarjon qizi
Farg'ona viloyati yuridik texnikumi
“Sud-huquqiy faoliyat” yo‘nalishi
2-bosqich 37-23-guruh o‘quvchisi

Annotatsiya:

Ushbu maqolada mamlakatimizda saylov tizimida amalga oshirilgan islohotlar, saylov borasida xalqaro standartlar va demokratik prinsiplar, bugungi kun talablaridan kelib chiqib qonunchilikka kiritilgan o‘zgartirishlar hamda bunda saylov jarayoni ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ta’minlashga qaratilayotgan e’tibor xususida so‘z yuritilgan.

Kalit so‘zlar: saylov tizimi, xalqaro standartlar, Qonunchilik palatasi, mahalliy Kengashlar, siyosiy partiya, elektorat, saylov komissiyasi, saylov okrugi, saylov uchastkasi.

Аннотация:

в данной статье речь идет о реформах избирательной системы в нашей стране, международных стандартах и демократических принципах в области выборов, изменениях в законодательстве, основанных на требованиях сегодняшнего дня, а также уделяется внимание обеспечению прав и свобод участников избирательного процесса.

Ключевые понятия: избирательная система, международные стандарты, Законодательное собрание, местные советы, политическая партия, электорат, избирательная комиссия, избирательный округ, избирательный участок.



Abstract:

This article addresses the reforms implemented in the electoral system in our country, international standards and democratic principles regarding elections, amendments to the legislation based on today's requirements and the emphasis on ensuring the rights and freedoms of the participants in the electoral process.

Key concepts: electoral system, international standards, legislative chamber, local councils, political party, electorate, electoral commission, electoral district, electoral district.

Ma'lumki, davlatimiz bugungi kunda inson huquqlari bo'yicha bir qator xalqaro hujjatlarga qo'shilgan va xalqaro huquqning to'la huquqli subyekti sifatida xalqaro majburiyatlar, xalqaro huquqning umume'tirof etilgan tamoyil va me'yorlarini sobitqadamlik bilan amalga oshirib kelmoqda. Xusuan, saylovlarni demokratik tarzda o'tkazish, saylov jarayoni ishtirokchilarining huquq va erkinliklarini ta'minlash, himoya qilish borasida zamonaviy huquqiy asoslar yaratilgan. Bu jihatlar mamlakatimiz parlamenti Qonunchilik palatasi hamda Xalq deputatlarining mahalliy kengashlariga bo'lib o'tadigan saylovlarga tayyorgarlik ko'rish jarayonida o'z ifodasini topmoqda.

O'zbekistonda saylovlar tub o'zgarishlar va demokratik islohotlar, vujudga kelayotgan yangi siyosiy muhit sharoitida o'tkazilmoqda va xalqaro hamjamiyatda ushbu o'zgarishlarga e'tibor tobora oshib bormoqda.¹

Olib borilgan islohotlar samarasi o'laroq, "saylov qonunchiligini izchil amalga oshirish yo'lida saylov komissiyalari va aholining saylov madaniyatini yuksaltirish, siyosiy partiyalarning o'z elektorati bilan ishlash tizimini yana-da takomillashtirish, partiyalarning siyosiy faolligini oshirish muhim ahamiyat kasb etadi".²

Shu jihatdan olib qaraganda, mamlakatimizning milliy saylov qonunchiligi, amaliyoti va saylov komissiyalari tizimidagi sifat o'zgarishlari inson qadri har narsadan ulug'degan hayotbahsh g'oyaga mos ravishda takomillashib borayotganini ko'ramiz. Yangi O'zbekistonda saylovlar va referendumga tayyorgarlik ko'rish va

¹ G. Rahimova. Inson huquqlarini ta'minlash va demokratik rivojlanish yo'lidagi islohotlarning xolis mezoni. "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2024 yil 22 avgust. 168-soni (1229).

² A.Saidov. Yangi O'zbekiston va saylov qonunchiligi. <https://www.uzbekembassy.in/янги-ўзбекистон-ва-сайлов-қонунчилиг/>



ularni o'tkazish falsafasida ana shu yorqin milliy g'oya o'zining in'ikosini topmoqda.³

O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 8-moddasida yuqorida bildirilgan fikrlar tasdig'i sifatidagi normalar o'z aksini topgan bo'lib, unga ko'ra saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishni saylov komissiyalari ochiq va oshkora amalga oshiradi.

Mazkur moddaga muvofiq, saylov komissiyalari fuqarolarni o'z ishi to'g'risida, saylov okruglari, uchastkalari tuzilganligi haqida, saylov komissiyalarining tarkibi, ularning joylashgan yeri va ish vaqtি to'g'risida xabardor etadi, saylovchilarining ro'yxatlari, saylovda ishtirok etayotgan siyosiy partiyalarning ro'yxati bilan tanishtiradi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar to'g'risidagi, shuningdek ovoz berish va saylov yakunlari haqidagi ma'lumotlarni ma'lum qiladi. Bu jarayonlarni ochiq va oshkora o'tkazilishini ommaviy axborot vositalari saylovga tayyorgarlikning borishini va saylov qanday o'tayotganligini yoritib borishi belgilanganligida ham ko'rish mumkin.

Saylov komissiyalarining majlislari ochiq o'tkaziladi va saylov komissiyalarining qarorlari ommaviy axborot vositalarida e'lon qilinadi yoki ushbu Kodeksda belgilangan tartibda hammaga ma'lum qilinadi.

Saylovga tayyorgarlik ko'rish hamda uni o'tkazishga doir barcha tadbirlarda, shuningdek saylov kuni ovoz berish xonalarida va ovozlarni sanab chiqishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga, Qonunchilik palatasi deputatligiga, mahalliy Kengashlar deputatligiga nomzodlar ko'rsatgan siyosiy partiyalardan, fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organlaridan kuzatuvchilar, ommaviy axborot vositalari vakillari, boshqa davlatlardan, xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar ishtirok etish huquqiga ega.

Fuqarolarga uchastka saylov komissiyasi binosida saylovchilar ro'yxati bilan tanishish, shuningdek Markaziy saylov komissiyasining rasmiy veb-sayti orqali saylovchilar ro'yxatidan o'zlariga tegishli ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati ta'minlanadi. Chet davlatlarda turgan fuqarolarga saylovchilar ro'yxatidagi o'ziga tegishli ma'lumotlar bilan tanishish imkoniyati O'zbekiston Respublikasi Tashqi

³ Z. Nizamxodjayev. Saylov huquqi: inson qadriga yuksak e'tibor "Yangi O'zbekiston" gazetasining 2024 yil 30 iyul 151-soni (1212).



ishlar vazirligi, O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari rasmiy veb-saytlari orqali ham ta’minlanadi.

Saylovchilarning ro‘yxatlari saylovga o‘n besh kun qolganida, O‘zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi diplomatik va boshqa vakolatxonalari huzurida, sanatoriylarda va dam olish uylarida, kasalxonalarda va boshqa statsionar davolash muassasalarida, olis va borish qiyin bo‘lgan hududlardagi fuqarolar turgan joylarda, qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan uchastkalarda esa saylovga uch kun qolganida hamma tanishib chiqishi uchun taqdim etiladi.

Uchastka saylov komissiyasi binosida saylovchilar ro‘yxati hamma tanishib chiqishi uchun qulay bo‘lgan holda taqdim etiladi. Bunday ro‘yxatda saylovchilarning faqat familiyasi, ismi, otasining ismi va tug‘ilgan yili ko‘rsatiladi.

Uchastka saylov komissiyasi ro‘yxat bilan tanishish joyi va vaqtি to‘g‘risida xabardor etadi. Saylov komissiyalari saylovchilarning ro‘yxatlari hamma tanishib chiqishi uchun taqdim etilganidan keyin ham ularga o‘zgartishlar kiritishi mumkin va bunday o‘zgartishlar kiritish saylovga besh kun qolganida to‘xtatiladi.

Har bir fuqaro saylovchilarning ro‘yxatlaridagi xato yoki noaniqlik to‘g‘risida uchastka saylov komissiyasiga arz qilishi mumkin. Bunda uchastka saylov komissiyasi 24 soat ichida murojaatni tekshirishi va xatoni yoki noaniqliknı bartaraf etishi yoxud murojaat qiluvchiga uning murojaati rad etilganligi to‘g‘risida asoslantirilgan javob berishi shart. Fuqarolar uchastka saylov komissiyasining harakatlari va qarorlari ustidan sudga shikoyat qilinishi mumkin.

O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksida saylov jarayonlarining qonun talablari doirasida va adolatli tashkil etish hamda o‘tkazish jarayonida siyosiy partiyalardan, fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlaridan, ommaviy axborot vositalari, boshqa davlatlar va xalqaro tashkilotlardan kuzatuvchilar, ularning huquq va majburiyatları bilan bog‘liq bob ham ajratilgan bo‘lib, ushbu bob normalarida ham inson qadri, saylovchilarning qonuniy manfaatlari o‘z ifodaisni topgan deb aytish mumkin

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. –T.: “O‘zbekiston”, 2023 y.
2. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi. <https://lex.uz/acts/4386848>.



Proceedings of International Conference on Scientific Research in Natural and Social Sciences

Hosted online from Toronto, Canada.

Date: 5th October, 2024

ISSN: 2835-5326

Website: econferenceseries.com

3. O‘zbekiston Respublikasining 2023-yil 18-dekabrdagi O‘RQ-883-son “O‘zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o‘tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o‘zgartirish va qo‘sishchalar kiritish to‘g‘risida”gi Konstitutsiyaviy qonuni. <https://lex.uz/docs/6697581>.
4. G. Rahimova. Inson huquqlarini ta’minalash va demokratik rivojlanish yo‘lidagi islohotlarning xolis mezoni. “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2024 yil 22 avgust. 168-soni (1229).
- 5.A. Saidov. Yangi O‘zbekiston va saylov qonunchiligi. <https://www.uzbekembassy.in/янги-ўзбекистон-ва-сайлов-қонунчилиг/>.
6. Z. Nizamxodjayev. Saylov huquqi: inson qadriga yuksak e’tibor. “Yangi O‘zbekiston” gazetasining 2024 yil 30 iyul. 151-soni (1212).